



**ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH UCHUN O'QUV  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*Maxsus pedagogika yo'naliishi 4-bosqich talabasi*

*Mirsultonova Ominabonu Baxtiyor qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Eshitish idrokini rivojlantirish uchun o'quv faoliyati tashkil etish, eshitish idrokini individual darsda rivojalantirish, individual va frontal mashg'ulotlar ketma ketligi, nutq va boshqa komponentlar orqali eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha bataysil ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** individual, frontal, dialog musiqiy-ritmik, kognitiv, talaffuz, nutq.

Eshitish idrokining individual darsda rivojlantirish:

Individual dars eshitish nutq idrokini rivojlantirish shakllaridan biridir. Ishning asosiy maqsadi – eshitish komponentini musahkamlashni, atrofdagi odamlar nutqini eshitish vizual-kompleks idrok etishda, qisqartirilgan va qoldiq eshitish hususiyatini tiklashdan iborat.

Individual darslar ular, ya'ni 1 – 5- sinflar uchun haftada 3marta o'tkaziladi. Darslar 20 daqiqa davom etadi. Ammo, bu o'qishning birinchi chorakida eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha darslar bo'lmaydi, faqat talaffuz darslari, ya'ni audiometrik yoki nutq talaffuzi olib boriladi.

Zamonaviy o'quv dasturiga ko'ra, kar va zaif eshituvchilar maktabining har bir sinfi uchun undagi o'quvchilar sonidan qat'i nazar, 15 soatlik individual darslar belgilangan. Unga ko'ra sinfda 8 naфардан 10 naфargacha bola bo'ladi; individual darslar o'qituvchi tomonidan maxsus jadvalga asosan olib boriladi. Jadvalning o'ziga xosligi shundaki, mashg'ulotlar soat 16.00ga qadar tugashi kerak.

Eshitish idrokini bolalarni guruh hosil qilgan holda rivojlantirish:



Kar va zaif eshituvchilarga – guruh bo‘lib dars o‘tish 6 – 11-sinflarda eshitish faoliyatini tashkil etish boshlanadi. Biroq, guruh bo‘lib eshitish idrokini rivojlantirish majburiy emas, tavfsiyadir. Shu bilan birga sinflarda o‘quv jarayonini shaklini o‘zgartirish orqali kar va zaif eshituvchi bolalarning eshitish idrokini rivojlantirishga qiziqishini oshirish mumkin.

Masalan:

Darslarni dialog yoki monolog sifatida o‘tkazish orqali bolaning eshitish idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu maktablarda dars soatlari soni dastur orqali tartibga solinadi. Bu soatlar soni ta‘lim soni ta‘lim standartining mintaqaviy va maktab komponentlariga muvofiq o‘zgarishi mumkin.

Mashg‘ulotlar guruh bo‘lib o‘tilganda, qoida tariqasida, haftasiga 2 marta, 30 daqiqadan o‘tkaziladi.

Ishning mazmuni dastur bilan belgilanadi. Ish jarayonida gazeta, jurnal, kitobladan matnlar, maqolalardan foydalanish mumkin. Darslar davomida turli nutq birliklari: gap, ibora, so‘z, bo‘g‘in va tovushlar qo‘llanadi.

Frontal darslar orqali eshitishni rivojlantirish:

Bunday maxsus darslar - 1 – 2 – 3- sinflarda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun haftada 1marta olib boriladi. Zamonaviy o‘quv rejasiga ko‘ra frontal darslar haftasiga 10 soat ajratilgan.

Parallel sinflar bo‘lmagan joylarda frontal darslar юқори синф o‘quvchilar bilan o‘tkaziladi. Darslar 45 daqiqa davom etadi va maxsus dastur asosida olib boriladi. Har bir darsda ta‘lim tarbiya va korreksion (tuzatish) ishlari olib boriladi.

Eshitish idrokini musiqiy-ritmik darslarda rivojlantirish:

Eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish shakllaridan biri musiqiy-ritmik darsidir.

Musiqiy-ritmik eshitish idrokini rivojlantirishning 3 turi mavjud:

1.Nutq va boshqa komponentlar orqali eshitish idrokini rivojlantiradi.

Maktablarda olib boriluvchi musiqiy-ritmik mashg‘ulotlar kar va zaif eshituvchilarga – nutq va boshqa komponentlar bilan qo‘silib eshitish idrokini rivojlantiradi.



Musiqiy-ritmik darslar nuqsonli bolalar uchun:

- emotsiyal-irodaviy soha;
- harakat sohasini takomillashtirish;
- kognitiv qiziqishlarini kengaytirish;
- talaffuz qobiliyatini avtomatlashtirish;
- eshitish idroki va estetik didini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Bunday mashg‘ulotlar muntazam davom etsa, nutq nafasini va ovozini rivojlantirish; nutq tovushlarini, so‘z va iboralarda talaffuzini takomillashtirish, nutq materialini takrorlash orqali eshitish idrokini yanada rivojlantirish mumkin.

Nutq mashqlari – talaffuzni avtomatlashtirish va tuzatish, nutq ekspressivligini va eshitish idrokini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

2. Musiqiy-ritmik tadqiqotlarning ikkinchi yo‘nalishi – eshitish idrokini yuksaltiradi. Bu shundan iboratki, darslar davomida qoldiq va qisqartirilgan eshitish xususiyati davomida musiqa, nonutqiy tovushlarni farqlash uchun foydalanadi. Kar va zaif eshitadigan odamlarning musiqani idrok etish analizatorining - saqlanib qolgan eshitish xususiyatini saqlab qolish va rivojlantirish uchun qo‘llanadi. Buning uchun musiqa xarakteridagi asar, kichik va sodda musiqiy pyesa, xalq qo‘shiqlari va boshqalar; undan so‘ng sekin, g‘amgin, kulguli, sokin, baland ovozdagi musiqalarni bir-biridan farqlashni o‘rgatiladi.

Birinchi sinf o‘quvchilari – marsh, musiqa, raqsdagi kuchli zarblarni ajratib ko‘rsatishni, musiqa asbobida ritmik to‘lqinni his qilishni o‘rganadilar, so‘ngra ular resitativ tarzda ijro etadilar. Bu paytda nafaqat ijro etishadi, balki musiqa matni bilan tanishadilar, musiqani jo‘r bo‘lib aytishni o‘rganadilar, qo‘shiqni talaffuz qilib uning ritmik to‘lqinini o‘rganadilar. Bu orqali kar va zaif eshituvchilarning og‘zaki nutqi rivojlanadi.

3. Musiqiy-ritmik darsning uchinchi yo‘nalishi – haraka qobiliyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar tizimi tana harakatlarini o‘z ichiga oladi, turli yo‘nalishlarda egilish, bosh harakati, burilish kabi harakatlar orqali namoyon bo‘ladi. Harakatlar matn ustida ishslash, nutqning ritmi va ifodaliligi; nutqning intonatsiyasi va ohangi ustida ishslashga bog‘liq.



Shunday qilib, musiqiy-ritmik darsi uchta jarayonni o‘z ichiga oladi:

1. Harakatlarni yo‘naltirish;
2. Nutqning talaffuzini shakllantirish;
3. Eshitish idrokini rivojlantirish.

Maxsus ta’lim tizimidagi o‘quv jarayoni darslarini shu tipda tashkil etish eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish idrokini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.N.GORINA,O.V.SOLOVEVA «OBUCHENIE, VOSPITANIE I RAZVITIE DETEY S NARUSHENIYAMI SLUXA». OOO «IZDATELSTVO SENTR «NAUKA». SARATOV IS «NAUKA» 2019 G.
2. BOSKIS R.M. UCHITELYU O DETYAX S NARUSHENIYAMI SLUXOM. – M.: PROSVEЩENIE, 2008.